

KLINIK TA’LIM JARAYONIDA TIBBIY TERMINOLOGIYANI EGALLASHNING KASBIY KOMPETENSIYAGA TA’SIRI

Qirg‘izova Xolida Xudayberdiyevna
NamDU, Klinik fanlar kafedrası kata o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18977562>

Annotatsiya. Mazkur tezisda klinik fanlarni o‘qitish jarayonida terminologik kompetensiyaning bo‘lajak shifokorlar kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqot davomida terminologik kompetensiyaning klinik tafakkur, diagnostik qaror qabul qilish va kasbiy kommunikatsiyaga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalari matematik-statistik usullar, jumladan korrelyatsion va regressiya tahlili yordamida qayta ishlanib, terminologik tayyorgarlik klinik bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: terminologik kompetensiya, klinik ta’lim, tibbiy terminologiya, kasbiy kommunikatsiya, klinik tafakkur.

Abstract. This thesis analyzes the role of terminological competence in the professional training of future doctors in the process of teaching clinical sciences. During the study, the impact of terminological competence on clinical thinking, diagnostic decision-making, and professional communication was studied. The results of the study were processed using mathematical and statistical methods, including correlation and regression analysis, and showed that terminological training increases the effectiveness of mastering clinical knowledge.

Keywords: terminological competence, clinical education, medical terminology, professional communication, clinical thinking.

Аннотация. В данной диссертации анализируется роль терминологической компетенции в профессиональной подготовке будущих врачей в процессе преподавания клинических наук. В ходе исследования изучалось влияние терминологической компетенции на клиническое мышление, принятие диагностических решений и профессиональную коммуникацию. Результаты исследования были обработаны с использованием математических и статистических методов, включая корреляционный и регрессионный анализ, и показали, что терминологическая подготовка повышает эффективность усвоения клинических знаний.

Ключевые слова: терминологическая компетенция, клиническое образование, медицинская терминология, профессиональная коммуникация, клиническое мышление.

Kirish

Zamonaviy tibbiy ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan o‘qitish modeli ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Tibbiyot sohasida texnologik rivojlanish, diagnostik jarayonlarning murakkablashuvi hamda klinik axborot hajmining ortishi bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablarni qo‘yimoqda. Bunday sharoitda mutaxassisdan rivojlangan klinik tafakkur, tezkor diagnostik qaror qabul qilish qobiliyati hamda samarali kasbiy kommunikatsiya talab etiladi.

Terminologik kompetensiya kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixolingvistik tadqiqotlar terminologik bilimlar professional tafakkurning struktur komponenti ekanligini ko‘rsatadi. Tibbiy terminologiya kasalliklarning klinik belgilari, diagnostik mezonlari hamda davolash algoritmlarini konseptual darajada tushunishga yordam beradi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, terminologik tayyorgarligi yuqori bo‘lgan talabalar klinik fanlarni o‘zlashtirishda 20–30% yuqori natija ko‘rsatadi. Shu sababli terminologik kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy tibbiy ta’limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Klinik fanlarni o‘qitishda terminologik kompetensiyaning bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligiga samaradorligiga ta’sirini aniqlash.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda kvazi-eksperimental pedagogik model qo‘llanildi. Tadqiqot 120 nafar tibbiyot talabalari ishtirokida olib borildi. Talabalar nazorat (60 nafar) va tajriba (60 nafar) guruhlariga ajratildi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish metodlari qo‘llanildi. Tajriba guruhida esa interfaol metodlar, case-study, simulyatsion mashg‘ulotlar hamda terminologik treninglar asosida o‘qitish tashkil etildi.

Natijalar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Student t-testi, korrelyatsion tahlil hamda regressiya modeli qo‘llanildi. Statistik ishonchlik darajasi $p < 0.05$ sifatida qabul qilindi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot natijalari terminologik kompetensiyaning sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Past darajadagi ko‘rsatkich 42% dan 18% gacha kamaydi. Yuqori darajadagi ko‘rsatkich esa 12% dan 30% gacha oshdi.

Klinik bilimlarni o‘zlashtirish tajriba guruhida 69 ball dan 85 ballgacha oshdi. Nazorat guruhida esa o‘shirish pastroq kuzatildi.

Korrelyatsion tahlil terminologik kompetensiya va klinik bilimlar o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi ($r = 0.71$; $p < 0.01$). Regressiya modeli $Y = 0.62X + 1.84$ natijasini berdi. Determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0.64$ bo‘lib, klinik bilimlar o‘zgarishining 64% terminologik kompetensiya bilan izohlanishini ko‘rsatdi.

Kasbiy kommunikatsiya ko‘rsatkichlari ham ijobiy o‘sd. Klinik nutq aniqligi 32% ga, diagnostik izoh sifati esa 28% ga oshdi.

Olingan natijalar terminologik kompetensiyaning klinik tayyorgarlikdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Terminologik bilimlar klinik tafakkur shakllanishiga hamda kasbiy kommunikatsiya sifatining oshishiga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar terminologik kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa

Terminologik kompetensiyani tizimli rivojlantirish bo‘lajak shifokorlarning klinik tayyorgarligi sifatini oshiradi. Tadqiqot natijalari terminologik tayyorgarlik klinik bilimlarni o‘zlashtirish, diagnostik fikrlash va kasbiy kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kelgusida terminologik kompetensiyani rivojlantirishda raqamli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Зимняя И.А. Компетентностный подход в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 240 с.
2. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в высшей школе. – Москва: Высшая школа, 2013. – 207 с.
3. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – Москва: Педагогическое общество России, 2010. – 320 с.
4. Рахимов С. Тиббий таълим методикаси асослари. – Тошкент: Ibn Sino, 2020. – 256 б.
5. Каримова М. Касбий таълимда компетенциявий ёндашув. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 224 б.
6. World Health Organization. Transforming and scaling up health professionals’ education and training. – Geneva: WHO Press, 2022. – 124 p.
7. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A., et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems. – The Lancet. – 2010. – Vol. 376(9756). – P. 1923–1958.
8. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today. – Medical Teacher. – 2007. – Vol. 29(7). – P. 625–629.